

## SOLIQ TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH

**Toshpo'latov Jahongir Abdug'ani o'g'li**  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*  
*“Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari”*  
*mutaxassisligi magistranti*  
[Tjahongir@gmail.com](mailto:Tjahongir@gmail.com)

Respublikamizda bugungi kungacha olib borilgan islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning rivojlanishib borishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, bir qancha sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi va ulardan samarali foydalanish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishiga aylandi. Axborot texnologiyalar samarasi o'laroq bugungi kunda soliq to'lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o'rtasidagi asosiy muloqot virtual platformaga ko'chib ulgurdi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining global raqobatbardoshlik salohiyatining o'sishida, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari beqiyos ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma'lum.

Bu esa soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish hamda soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, asosiysi, iqtisodiyotda xufiyona faoliyatni qisqartirish, shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.<sup>38</sup>

Soliq tizimini takomillashtirish uchun mamlakatimizda soliq islohotlari va bir qancha ishlar amalga oshirildi. Soliq tizimini rivojlantirish va uni shaffof ishlashi ta'minlash axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi bilan amalga oshirilmoqda. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imglar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar va ularning tuzilishi tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimi asosini tashkil qiladi. Soliq tizimining rivojlanishida soliq islohotlari juda kata ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli farmonida ham soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini

<sup>38</sup> Г.И.Абаева “Организация интегрированной информационной налоговой системы”. – М: Костанай, 2017. S – 215



qo'llash haqida bir qancha ustuvor vazifalar belgilab olingan<sup>39</sup>:

- davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

- soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish;

- ma'lumotlar bazalari soliq organlarining Yagona integratsiyalashtirilgan axborot-resurs bazasiga integratsiya qilinadigan davlat organlari va tashkilotlarining ro'yxatini tasdiqlash;

Soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish birinchi navbatda davlat soliq xizmati organlari xodimlari tashkil qilinib, amalda qo'llaniladi. Davlat soliq siyosatini amalga oshirishda asosiy mavqeni egallagan soliq organlariga soliq qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishdek yuksak vazifa yuklatildi. O'tgan davr oralig'ida soliq organlari davlat budjetining daromad qismini uzluksiz to'ldirishni ta'minlaydigan muntazam tizimga aylandi.

O'z navbatida Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, malakali xodimlarni tayyorlash, kompyuter jihozlari, dasturiy mahsullar bilan ta'minlash hamda zamon talabidan kelib chiqib, soliq idoralarida jamlangan hisobotlarni electron ko'rinishda quyi soliq xizmati organlaridan Davlat soliq qo'mitasiga uzatish, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan beriladigan operativ topshiriqlarni davlat soliq boshqarmalariga va davlat soliq inspeksiyalariga to'g'ridan – to'g'ri uzatish masalalari, shu bilan birga soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish, ularni davlat budjeti oldidagi majburiyatlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni yagona soliq to'lovchilar bazasida saqlash va boshqa masalalar dolzarb masalaga aylandi.<sup>40</sup>

Mazkur masalalarni yechishda avvalo Davlat soliq qo'mitasi soliq xizmati idoralarini zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturlar orqali bir-biri bilan bog'lash va yagona axborotlar bazasini takomillashtirish maqsadida ma'lumotlarga ishlov berishning yagona kompyuter tizimini ishlab chiqish va Davlat soliq

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli farmoni

<sup>40</sup> Turaev, S. S. (2021). IMPACT OF THE TAX LOAD ON THE ACTIVITIES OF TAXPAYERS. Theoretical and applied sciences, (5), 208-212.



qo'mitasining barcha bo'linmalarida lokal axborot-hisoblash tarmoqlarini barpo etishni maqsad qilib qo'ydi. Shu bois Davlat soliq xizmati organlarida zamonaviy axborot texnologiyalari asosida axborot tizimini yaratishga asos solindi va uning huquqiy bazasi yaratildi.<sup>41</sup>

Soliq tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash natijasida quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi:

1.Soliq tizimini axborotlashtirish darajasining rivojlanishi soliq tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq va tez bajarish uchun imkoniyat yaratdi.

2.Soliq tizimida axborot texnologiyalardan samarali foydalanilgan taqdirda axborot almashuvining tezlashishi hisobiga sarf-xarajatlar (turli xarajatlar: material, ish kuchi, qog'ozbozlik va h.k.) keskin qisqaradi va ish samaradorligi oshib, tizim faoliyati yaxshilanadi.

3.Soliq tizimida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning faollashuvi mamlakat bo'yicha yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning bir qismi hisoblanadi, shuning uchun bu jarayonda soliq tizimining faol ishtirok etishi barcha iqtisodiy jihatdan bog'liq jarayonlar uchun katta samara beradi.

4.Soliqlarni hisoblash, to'plash jarayoni soddalashadi va davlat budjetini to'ldirish tezlashadi.

Shu tariqa soliq tizimida axborot texnologiyalarini qo'llash zaruriyati va dolzarbligi yuzaga keldi.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq ma'murchiligini avtomatlashtirish, idoralararo elektron ma'lumot ayirboshlash ulushini kengaytirish maqsadida, davlat soliq xizmati organlariga ma'lumotlar taqdim etuvchi idoralar bilan ma'lumotlarni elektron ayirboshlash kanallari tashkil etilgan.

Mazkur qarorning ilovasida ko'rsatilgan idora va tashkilot rahbarlari zimmasiga soliq majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumot va boshqa axborotlar to'laqonli hisobga olinishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatildi.


Yuqorida keltirib o'tilganlar asosida davlat soliq xizmati organlarida axborot texnologiyalari joriy qilinib, axborot tizimlariga asos solindi va ular muntazam ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз. 1962.

<sup>41</sup> Шарипович Б. А., Шухратович Т. С. (2022). УСТОЙЧИВЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ И ЭФФЕКТИВНАЯ НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА. НейроКвантология, 20(8), 14.





2. Г.И.Абаева “Организация интегрированной информационной налоговой системы”. – М: Костанай, 2017. S – 215

3. Jo'rayev A.S., Berdiyeva U.A. “Soliq ma'murchiligi” o'quv q`ollanma" - M: toshkent–2019. S – 201

4. Шарипович Б. А., Шухратович Т. С. (2022). УСТОЙЧИВЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ И ЭФФЕКТИВНАЯ НАЛОГОВАЯ ПОЛИТИКА. НейроКвантология, 20(8), 14.

5. Шухратович, Т. С. (2021). НАЛОГОВАЯ НАГРУЗКА И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИОННОЕ ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 7(5), 1-1

